

I. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3777,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 57811 kishiga yoki 1,6 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

(2018 yil 1 oktyabr holatiga, ming.kishi)

	Jami aholi soni	shu jumladan:		Jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
Viloyat	3777,8	1898,3	1879,6	1407,7	2370,1
<i>shaharlar</i>					
Samarqand	536,1	259,3	276,8	536,1	0
Kattaqo'rg'on	87,8	43,9	44,0	87,8	0
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	154,8	77,9	76,9	61,1	93,7
Bulung'ur	181,9	92,6	89,3	40,7	141,1
Jomboy	166,3	84,0	82,3	37,4	128,9
Ishtixon	246,0	123,7	122,3	67,5	178,6
Kattaqo'rg'on	265,5	134,5	131,0	50,8	214,7
Qo'shrabot	127,5	65,0	62,5	12,1	115,4
Payariq	242,8	125,3	117,5	71,2	171,6
Pastdarg'om	344,3	172,5	171,8	90,6	253,7
Paxtachi	140,7	69,7	71,0	27,7	113,0
Samarqand	244,8	123,7	121,1	14,8	230,0
Narpay	207,7	105,7	102,0	62,9	144,9
Nurobod	146,0	73,3	72,7	16,9	129,0
Tayloq	194,7	98,2	96,5	23,7	171,0
Urgut	490,9	249,0	241,9	206,4	284,5


2018 yil 1 oktyabr holatiga aholi soni tarkibi
(ming kishi)



2018 yilning yanvar-sentyabrda aholining tabiiy harakati

	kishi			har ming aholiga, nisbatan	
	2017y.	2018y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2017y.	2018y. ¹⁾
Tug'ilganlar	65502	71937	6435	23,8	25,7
O'lganlar	11809	11379	-430	4,3	4,1
Tabiiy o'sish	53693	60558	6865	19,5	21,6
Nikohlar	24737	19657	-5080	9,0	7,0
Ajralishlar	2917	2523	-394	1,1	0,9

2018 yilning yanvar-sentyabrida aholining tabiiy harakati, kishi hisobida



Tug'ilish darajasining ko'payishi Urgut (27,7 promilledan 30,1 promillega) va Payariq (26,5 promilledan 28,3 promillega), Kattaqo'rg'on shahar (22,4 promilledan 25,3 promillega), Ishtixon (24,9 promilledan 27,8 promillega) tumanlarida sezilarli darajada o'sish kuzatildi.


O'lim darajasi. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida vafot etganlar soni 11379 kishini tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga (11809 kishi) nisbatan 430 taga kamaygan. O'lim koeffitsenti esa 4,1 promilleni tashkil qildi (2017 yil yanvar-iyunida 4,3 promille).

O'lganlar sonining ko'payishi sezilarli darajada kuzatilmadi, aksincha kamayish Samarqand shahar (5,3 dan 4,7 ga), Pastdarg'om (4,1 dan 3,4 ga), Qo'shrabod (4,6 dan 4,1 promillega), va Narpay (4,1 dan 3,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

O'lganlar umumiy sonidan 60,0 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 7,6 foizi - o'sma kasalliklari, 6,4 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 5,9 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 4,1 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 1,4 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 14,6 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

O'lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzulishi

(2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga, foizda)



Nikoh va ajralishlar. 2018 yilning yanvar-sentyabrda FHDYO bo'limlarida 19657 ta nikoh va 2523 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 7,0 ta nikoh (2017 yilning tegishli davrida – 9,0 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2017 yilning tegishli davrida 1,1 ta) to'g'ri keldi.

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9320 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 12067 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 2747 kishiga (2017 yilning shu davrida minus 4026 kishi) teng bo'ldi.


2018 yil yanvar-sentyabrda aholining migratsiya ko'rsatkichlari (kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya sal'dosi</i>	
	<i>2017y.</i>	<i>2018y.</i>	<i>2017y.</i>	<i>2018y.</i>	<i>2017y.</i>	<i>2018y.</i>
Viloyat	7782	9320	11808	12067	-4026	-2747
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	1445	2630	2449	2290	-1004	340
Kattaqo'rg'on sh.	52	197	534	540	-482	-343
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	578	133	411	490	167	-357
Bulung'ur	655	663	841	783	-186	-120
Jomboy	535	654	415	448	120	206
Ishtixon	503	358	729	785	-226	-427
Kattaqo'rg'on	684	494	838	732	-154	-238
Qo'shrabot	426	565	660	808	-234	-243
Payariq	86	329	957	950	-871	-621
Pastdarg'om	686	352	491	520	195	-168
Paxtachi	274	729	865	810	-591	-81
Samarqand	461	952	555	881	-94	71
Narpay	475	499	525	539	-50	-40
Nurobod	48	95	389	373	-341	-278
Tayloq	504	331	375	371	129	-40
Urgut	370	339	774	747	-404	-408


Eng katta minus qoldiqlar Kattaqo'rg'on (minus 343) shaharda hamda Payariq tumani (minus 621), Urgut (minus 408), Nurobod (minus 278), Ishtixon (minus 427), Qo'shrabot (minus 243), Kattaqo'rg'on (minus 238), Oqdaryo (minus 357) tumanlarida kuzatildi.

2018 yilning yanvar-sentyabrida aholining tabiiy harakati

(har 1000 kishiga)



Bandlikka ko‘maklashish markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)



Bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 20800 nafari (barcha murojaat qilganlarning 54,8 foizi) ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Nurobod (murojaat etganlarning 72,2 foizi), Urgut (67,5 foizi), Qo‘shrabot 6,6 foizi), Samarqand shahar (66,5 foizi), Narpay (61,7 foizi) tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi.